**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-51409-3.21**
**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**
**O'zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o'rta maxsus**
**ta'lim vazirligi**

**_______________________**

**"8" iyul 2003 y.**

# TARBIYaVIY IShLAR USLUBIYoTI fanidan DASTUR

**Oliy ta'limning 140000 - "O'kituvchilar tayyorlash va pedagogika" ta'lim sohasidagi 5140900 - "Kasb ta'limi" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Primov M.,
k.o'q. Sultonov Q.

**Taqrizchilar:** prof. Quronov M.,
dots. Babashev F.

"Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fani bo'yicha ushbu o'quv dasturi tarbiya jarayonlaridagi dolzarb mavzularni qamrab olgan. Ayniqsa, barkamol insonni tarbiyalashdagi potentsial imkoniyatlarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Dasturda tarbiya jarayonlarining qonuniyatlari, tarbiyaviy ishlarning mohiyati, tarbiya vositalari, tarbiyaviy ishlarda muloqotning asosiy vazifalari, tarbiya usullari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning shakllari atroflicha yoritilgan.

В этой программе по предмету "Усулика воспитательной работы" охвачены актуальные темы воспитательного процесса. Особенное внимание уделено потенциальным возможностям в процессе воспитания всесторонне развитого человека.

В программе всесторонне освещены закономерности воспитательных процессов, сущность воспитательных процессов, средства воспитания, основные функции общения в воспитательных работах, усулы воспитания, формы организаций воспитательных работ.

In this programme in a subject "Method of upbringing work" covered urgent themes of educational process. The special attention is given to potential opportunities during education of all-round development person.

In programme was overall elecudated regular of upbringing processes, essence of upbringing processes, means of upbringing, main functions of contact in upbringing works, education methods, forms of organizations of educational works.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

# 1. SO’Z BOShI

## O’quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog’liqligi

Iqtisodiyot oliy o’quv yurtlarida iqtisodchi-pedagoglarni tayyorlash uchun zarur bo’lgan fanlardan biri "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fanidir. Chunki iqtisodiyot va pedagogika sohasida xizmat ko’rsatuvchi har bir mutaxassis tarbiyaviy ishlar jarayonlari to’g’risida chuqur bilimlarga ega bo’lmog’i kerak.

"Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fani bo’yicha tarbiyaviy ishlarning umumiy qonuniyatlari va qonunlari, tamoyillari va uslublari hamda barkamol avlodni shakllantirish bilan bog’liq bo’lgan amaliy va nazariy omillar o’rganiladi.

Fanni o’rganishning asosiy maqsadi-iqtisodchi-pedagoglarni "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" kursi bo’yicha tarbiyaviy ishlar nazariyasi va usulikasi bo’yicha bilim va ko’nikmalarini shakllantirish hamda ularda tarbiyaviy ishlar olib borish amaliyotini takomillashtirishdan iboratdir.

"Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fani bo’yicha ma’ruza va amaliyot mashg’ulotlarini o’tkazishda turli tarbiya uslublari kataloglaridan foydalanish, ko’p sonli va kam sonli test variantlaridan foydalanish hamda audio, video, muammoli vaziyatlar komplekslaridan foydalanish nazarda tutiladi.

## O’quv fani bo’yicha bilim, ko’nikma va mahoratlarga talablar

Mazkur fanni o’rganish jarayonida bakalavrlar tarbiyaviy ishlar nazariyasi, tarbiyaviy ishlarni dars jarayonida, o’quvchilarning dars jarayonlaridan tashqarida, oila, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borish bo’yicha bilim ko’nikma va malakalarga ega bo’ladilar.

Pedagoglar tarbiyaviy ishlarni olib borish jarayonida hamkorlik modellari, mustaqil fikrlashga o’rgatish tamoyillarining chuqur egallashlari zarur.

## Seminar mashg’ulotlari bo’yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Iqtisodchi-pedagoglar "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fanini o’zlashtirish jarayonida amaliy mashg’ulot, seminar mashg’ulotlarni bahs-munozara shaklida olib borish, mavzular bo’yicha test variantlarini tuzish, berilgan adabiyotlardan foydalangan holda amaliy mashg’ulot savollariga javob bera olishi, referatlar yozish ko’zda tutiladi.

## Auditoriya mashg’uloti turlarining soatlar hajmi bo’yicha tavsiyalar

Namunaviy o’quv rejada mazkur kursga 90 soat ajratilgan. Ularning 30 soati ma’ruza, 30 soati seminar mashg’ulotlaridan, 30 soati mustaqil ta’limdan iborat. Mazur kursni o’zlashirish natijasida bakalavrlar "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" sohasiga doir bilim va ko’nikmalarga ega bo’ladilar.

**Bakalavrlar bilimini baholash uchun o’tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

"Tarbiyaviy ishlar usulikasi" kursidan bakalavrlar bilimini nazorat qilishda ikki marta JB, ikki marta OB, bir marta YaB o’taziladi. Yakuniy baholash yozma ish shaklida tashkil etiladi.

**Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o’qitish texnologiyalarni qo’llash**

"Tarbiyaviy ishlar usulikasi" kursini o’qitishda albomlar, kompyuterlar, audio va video uskunalar, proektorlar va slaydlarni qo’llash talab etiladi.

**O’quv dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

Kasb ta’limi" yo’nalishlarida "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fani namunaviy o’quv rejasi bo’yicha 8-semestrda o’qitiladi.

## 2. FAN DASTURI

**"Tarbiyaviy ishlar usulikasi" kursining predmeti**

Sharq olimlarining tarbiya to’g’risidagi g’oyalari.

Ya.A. Komenskiy "sinf-dars" tizimidagi tarbiya nazariyasining asoschisi sifatida.

Tarbiya nazariyasining rivojlanishiga G’arb va Rossiya olimlari qo’shgan hissalari.

Turkistonda jadidchilik davrida tarbiya nazariyasining rivojlanishi.

*Tarbiya nazariyasining zamonaviy falsafiy-usulologik asoslari.* Tarbiya nazariyasining o’quv-tarbiyaviy ishlar amaliyoti bilan bog’lanishi.

**Inson-tarbiya predmeti c ifatida**

Rivojlanish jarayonida bolaning o’zgarishi. Jismoniy, fiziologik, ruhiy o’zgarishlar. Ijtimoiy jihatdan o’zgarishlar.

Kishi rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar.

Ishlab chikarish faoliyati-shaxs shakllanishidagi muhim omil sifatida. *Inson rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar: irsiyat, geografik muhit.* Etakchi omillar: ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, tarbiya, ishlab chiqarish faoliyati, mikromuhit.

**Turli yosh davrlarida tarbiya jarayonlari va inson rivojlanishining o’zaro aloqadorligi**

Turli yosh davrlari va tarbiya jarayonlari to’g’risida J. Piaje va L. S. Vigotskiyning nazariy qarashlari.

Bola rivojlanishidagi yosh davralari to’g’risida zamonaviy fanlardagi qarashlar.

Zamonaviy pedagogika amaliyotidagi tarbiyaviy ishlar jarayonida tarkib topgan davrlar.

*Bola rivojlanishidagi individuallik va uslubiylik.*

**Tarbiyaviy ishlarning maqsadi pedagogik muammo sifatida**

Tarbiyaviy ishlarning maqsadlari, tizimi. Tarbiyaning umumiy maqsadi. Muayyan yoshdagi bolalarni tarbiyalash maqsadlari. O'quv-tarbiya muassasasining tarbiyaviy ishlar faoliyatidagi maqsadi. Alohida o'quv kursini o'rganishdagi maqsad. Alohida mashg'ulotlar va tadbirlarning tarbiyaviy maqsadlari.

Barkamol avlodni tarbiyalash-tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsadi.

Barkamol avlod tushunchasining mazmuni.

Tarbiyalanuvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, dunyoqarashlar, ishonchlar va tamoyillar tizimi sifatida.

*Tarbiyada ilmiylik va diniy dunyoqarashning o'zaro munosabati.*

**G'arbdagi zamonaviy pedagogik ta'limotlarda tarbiyaning maqsadlari. Tarbiyaning umumiy va individual maqsadlari**

Fuqaroni tarbiyalash. Shaxsni o'z-o'zini takomillashtirishi maqsadida tarbiyalash.

Insonparvarlik tarbiyasi. Yashay olishni ta'minlash maqsadidagi tarbiya.

Barkamol avlodni tarbiyalash-tarbiyaning umumiy maqsadi sifatida.

Tabiiy qobiliyatlarni aniqlash yoshi. Tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

*Umumiy ta'lim berish mazmuni.* Umumiy ta'lim berishda bilim, ko'nikma va qobiliyatlar, munosabatlar tajribasi va ijodkorlik tajribasini rivojlantirish.

**Tarbiyaviy ishlarning mohiyati**

Tarbiyaviy ishlarning nazariy-usulologik asoslari. Tarbiyaviy ishlar-ijtimoiy hodisa sifatida.

Tarbiyaviy ishlarning tabiiy-ilmiy asoslari. Tarbiyaviy ishlarda inson hulqining shartli refleks xususiyatga egaligi.

Tarbiyaviy ishlarda inson hulqiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy mustahkamlovchilar to'g'risida amerikalik olim V. Skinner ta'limoti.

Tarbiya-ikki yoqlama jarayon sifatida.

*Avtoritar, demokratik va liberal tarbiya tiplari. Gumanistik tarbiya.*

**Qayta tarbiyalash va o'zini-o'zi tarbiyalash**

Tarbiyaviy ishlarning boshqa faoliyat turlaridan farqi.

Tarbiyaviy ishlarning ko'p omilliligi, uzoq muddatliligi, istiqbolliligi, majuaviyligi.

Tarbiyaviy ishlarning bosqichliligi. Bosqichlardagi emotsional mo'ljal, hatti-xarakatlarni to'g'ri bajarish qobiliyatini ishlab chiqish. O'zlashtirish.

Pedagogik vaziyat. Pedagogik vazifalar. Tarbiyaviy hatti-harakatlar.

Qayta tarbiyalash-avvalgi tarbiyaning kamchiliklarini bartaraf etish sifatida.

O'zini o'zi tarbiyalash-o'zida muayyan sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ongli va maqsadga muvofiq faoliyat sifatida.

*O'zini o'zi tarbiyalash bosqichlari. Birinchi bosqich-maqsadni aniqlash. O'zini bilish. Idealni aniqlash. O'z majburiyatlarini belgilash.*

Ikkinchi bosqich-belgilangan vazifani bajarish bo'yicha ishlar. O'zini ishontirish va o'ziga ta'sir. O'zini o'zi ruhlantirish. O'ziga o'zi buyruq berish.

Uchinchi bosqich-bajarilgan ishlarni yakunlash. O'zini o'zi nazorat va o'zini tahlil qilish.

Tarbiyaviy ishlar jarayoni natijalarini baholash.

**Tarbiya vositalari-pedagogik kategoriya sifatida. Muloqot-tarbiya vositasi**

Tarbiya vositalarining mohiyati va xilma-xilligi. Axborotlar oqimi xilma-xilligi, cheksiz plyuralizm sharoitida inson va jamiyat uchun foydali hulq-atvor va faoliyat shakllarini ishlab chiqish va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy qadriyatlar tizimini aniqlashdagi keng imkoniyatlar.

Muloqot-tarbiya vositasi sifatida. Muloqotning ijtimoiy asoslari. Muloqotda individual-shaxsiy xususiyatlar. Muloqot ishtirokchilari. Kommunikator. Retsiplent. Axborotning o'zi. Muloqot maydoni. Muloqot vositalari yoki kanallari.

Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari. Muloqot turlarining tasniflanishi. Funktsional-rolli. Shaxsiyatli. Axborotli.

"Professor-o'qituvchi-talaba" muloqoti. "Tarbiyachi-talaba" muloqoti.

Pedagogik muloqotning tarbiyaviy xarakteri.

Bevosita va bilvosita muloqot.

*Tarbiyalanuvchilarning turli yosh davrlarida pedagogik muloqot.*

Maktabgacha bo'lgan davrdagi pedagogik muloqot. Bolalik davridagi pedagogik muloqot. O'smirlik davrida pedagogik muloqot xususiyatlari. Yoshlar bilan pedagogik muloqot.

**Tarbiyaviy ishlarda pedagogik muloqotning asosiy vazifalari, bosqichlari va samaralilik shart-sharoitlari**

Pedagogik muloqotning vazifalari. Me'yoriy vazifa. Emotsional vazifa. Faollashtiruvchi vazifa.

Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari. Verbal vositalar. Noverbal vositalar.

Pedagogik muloqotda taktikva kinestetik til vositalari.

Pedagogik muloqot jarayonining bosqichlari. Kommunikativdan oldingi bosqich. Kommunikativ bosqich. Kommunikativdan keyingi bosqich. *Tarbiyaviy ishlarda pedagogik muloqotning samaradorlik shart-sharoitlari.*

Milliy muloqot xususiyatlari.

**Tarbiyaviy ishlarda o'yinning o'rni**

Shaxsni tarbiyalashda o'yinlarning roli. O'yinlar shaxsda ijobiy xislatlarni rivojlantirish vositasi sifatida. Sensomotor, simvolli, roli, syujet-rolli o'yinlar. Qurilish-konstruktorlik o'yinlar.

Didaktik o'yinlar. Turli yosh davrlarida didaktik o'yinlarning o'ziga xos jihatlari. Ijodiy o'yinlar. Musobaqa. Konkurs. Olimpiada. Intellektual o'yinlar. Dramalashtirish o'yinlari. Imitatsiya o'yinlari.

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda tarbiyaviy o'yinlar.

Terapevtik o'yinlar. Jismoniy chiniqtirish o'yinlari. Nerv tizimini mustahkamlovchi o'yinlar. *Shaxslararo munosabatlarni engillashtiruvchi o'yinlar.* Tarbiyaviy ishlarda milliy o'yinlarning roli.

**Mehnat tarbiya vositasi sifatida**

Mehnatning mohiyati. Mehnatning ijtimoiy xarakteri, tarkibiy qismlari. Mehnat motivlari. Ijtimoiy munosabatlar tizimida individ mavqeiga mehnat ta'siri.

Tarbiyada jismoniy mehnatning roli. Jismoniy mehnat turlari. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bo'yicha mehnat. Ijtimoiy ishlar. Ishlab chiqarish mehnati (kasb-hunar, ishlab chiqarish). Turmush, oila mehnati. Tarbiyaviy ishlarda aqliy va ma'naviy mehnat.

Aqliy mehnat. Aqliy mehnatning tarkibiy qismlari. Bilish. Tushunish. Bilgan narsalarga moslashish va bilgan narsadan foydalanish. Qayta hosil qilish va takomillashtirish. Yangi mahsulot yaratish.

Aqliy mehnat turlari. Referativ-qayta ishlab chiqarish mehnati, yig'uvchi-tahliliy, ma'rifiy, abstrakt mehnat, badiiy-ijodiy, tashkiliy boshqaruv.

Ma'naviy mehnat. Ma'naviy mehnatda hamdardlik, hissiy hamkorlik, norozilik, nafratlanish, qo'shilmaslik xislatlari. Ma'naviy mehnatda ichki ruhiy holat. Ma'naviy mehnat va diniy asoslar.

*Tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxs shakllanishida turli mehnat turlarini qo'llash-muvaffaqiyat sharti sifatida.*

**Tarbiya usullari**

Tarbiya usullarining mohiyati. Tarbiya usullarida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro faoliyatga kirishishi. Tarbiya vazifalari va usullari.

Muammoli vaziyat. Muammoli vaziyatdan chiqish usullarini egallashning tarbiyalanuvchi shaxsiga ta'siri. Muammoli vaziyatda yangi dalillarning mavjud bilimlarga zid kelishi.

*Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda umumiy tarbiya usullari.*

Tarbiya usullari. Asosiy va qo'shimcha tarbiya usullari.

Asosiy tarbiya usullari. Faoliyatni tashkil etish. Ongni shakllantirish.

Qo'shimcha tarbiya usullarida stimullar: rag'batlantirish, jazolash, musobaqa.

**Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning shakllari va tamoyillari**

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllarining tasniflari.

Yakka tartibdagi shakl. Guruhiy shakl. Jamoaviy shakl. Ommaviy shakl.

Sinfdan tashqarida tarbiyaviy ishlarning shakllari.

Kasb-hunar kolleji hayotini boshqarish va o'zini o'zi boshqarish. Yig'ilishlar. Lineykalar. Mitinglar. Murabbiylik soatlari. Talabalar o'zini o'zi boshqarish organlari yig'ilishlari. Devoriy gazetalar.

Oliy ta'lim muassasalarida atrof-olamni bilish shakllari. Ekskursiyalar. Poxodlar. Festivallar. Gazetalar. Jurnallar. Mavzuli kechalar. Sektsiyalar. ko'rgazmalar.

*Dam olish shakllari. Nonushtalar. Kechalar. Turli bayramlar va tug'ilgan kunlarni nishonlash.*

**Tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etish shakllarining tamoyillari**

Tamoyillarning tarbiya maqsadlariga bog'liqligi.

Maqsadga yo'naltirilganlik. Ilmiylik. Ko'rgazmalilik. Onglilik va faollik. Hayotiy vaziyatlarga bog'langan holda tarbiyalash tamoyili. Sistemalilik va ketma-ketlik tamoyili mustahkamlik tamoyili.

Yosh xususiyatlari va individual farqlarni hisobga olish tamoyili. Jamoada tarbiyalash tamoyili.

*Tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat va talabchanlik tamoyili.*

## 3. SEMINAR MAShG'ULOTLARINING TAXMINIY MAVZULARI

Fanning maqsadi vazifalari va rivojlanish tarixi*.

Tarbiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillar*.

Tarbiya jarayonlari va yosh davrlari*.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi*.

Rivojlangan davlatlarda tarbiya maqsadlari*.

Tarbiyaviy ishlarning nazariy-usulologik asoslari*.

Qayta tarbiyalash va o'zini o'zi tarbiyalash jihatlari*.

Milliy tarbiya tamoyillari*.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish vositalari*.
Pedagogik muloqot va tarbiya jarayonlari*.
O'yinlar va tarbiya jarayonlari*.
Mehnat faoliyati-tarbiya vositasi sifatida*.
Tarbiya usullari*.
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari*.
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tamoyillari*.

## 4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR

Ko'rgazma-namoyish materiallar ro'yxati:

- "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fanining amaliyotda qo'llanilishini ko'rsatuvchi plakatlar;
- "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fanining ilmiy-tadqiqot usullari ko'rsatilgan sxemalar;
- "Tarbiyaviy ishlar usulikasi" fanining tamoyillari ko'rsatilgan ko'rgazmali plakatlar.

O'quv filmlari ro'yxati (internetdan olinadi).
Ma'ruza matnlari bo'yicha tarqatma materiallar.
Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

## 5. O'ZLAShTIRIShNING NAZORATI

### Nazorat turlari:

*joriy baholash uchun:*

- seminarning mashg'ulot savollariga yozma javoblar tayyorlash;
- og'zaki bahs-munozaralarda qatnashish;
- test variantlariga javoblar berish;
- referatlar yozish.

*oraliq baholash uchun:*

- ma'ruza darslariga qatnashish;
- ma'ruzalar mazmunini yozib borish;
- ma'ruza darslarida savol-javoblarda faol qatnashish.

*yakuniy baholash uchun:*

Kafedrada tasdiqlangan fan varianti savollariga 1200 so'z miqdoridagi "yozma ish"ni bajarish yoki test savollari, variant savollariga og'zaki javob berish.

## 6. ADABIYoTLAR

### Asosiy adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I. A. Hayotimizning taraqqiyotimizning huquqiy asosi. Xalq so'zi. 2002 yil 6 dekabr.
13. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq. – T.: O'qituvchi, 1972.
14. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1997.
15. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000 y.
16. Polyakov S. D. Psixopedagogika vospitaniya. -M.: 1996.
17. Selivanov V. S. Osnovi obshchey pedagogiki: Teoriya i usulika vospitaniya. –M.: Akademiya, 2000.


### Qo'shimcha adabiyotlar


1. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. (Din, falsfa, hayot, ma'naviyat va ma'rifat saboqlari).-T.: Mavorounnaxr, 2001.
2. Jonimatova X. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya to'g'risida. – T.: O'qituvchi, 1990.
3. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000.

4. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1994.
5. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1998.
6. Lixachev B.T. Vvedenie v teoriyu i istoriyu vospitatelnix tsennostey. – Samara, 1997.
7. Mavlonova R. To'raeva J. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 2001.
8. Pedagogika. (A.Munavvarovning umumiy tahriri) -T.: O'qituvchi, 1996.
9. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs. -M.: 1999.
10. Pidkasistiy P. I, Fridman L M, Gartskov M. G. Psixologo-didakticheskiy spravochnik prepodavatelya visshey shkoli.-M.: 1999.
11. Safo O. Mustaqillik va tarbiya masalalari. -T.: O'zbekiston, 1995.
12. Slastenin V. A. i dr. Pedagogika. – M.: 1997.
13. Teoriya i praktika vospitatelnix sistem / Pod red. L.I. Novikovoy: V 2 k.n. – M: 1993.
14. Shchurkova N. i dr. Novie texnologii vospitatelnogo protsessa. – M.: 1993.
15. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. T.: 2001.
16. O'zbek pedagogikasi tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997.
17. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: Fan, 1996.
18. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. – T.: Cho'lpon, 1992.